

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ORTIKOV OYBEK RUSTAMOVICH**

**MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA TALABALARDA  
MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY  
PEDAGOGIK ASOSLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Ortikov Oybek Rustamovich**

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslari ..... 3

**Ортиков Ойбек Рустамович**

Научно-педагогические основы развития у студентов идеологического иммунитета в процессе духовно-просветительской работы..... 21

**Ortikov Oybek Rustamovich**

Scientific and pedagogical foundations of the development of student's ideological immunity in the process of spiritual and educational work..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of publications..... 45

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ORTIKOV OYBEK RUSTAMOVICH**

**MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA TALABALARDA  
MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY  
PEDAGOGIK ASOSLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.3.PhD/Ped3835 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:** **Olimov Shirinboy Sharofovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Quronov Muhammadjon Quronovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yuzlikaev Farit Rafaelovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD 03/30.09.2023 Ped 173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "11" 06 kuni soat 17:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel: (+998 71) 202-01-20 faks (+99871) 202-01-21, e-mail: info@bimm.uz)

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21 raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil 100095 Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel. (+998 71) 203-01-28

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "11" 06 kuni tarqatildi  
(2025 yil "11" 06 kuni "11" 06 raqamli reyestr bayonnomasi)



**U.Sh. Begimkulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., professor

**N.K. Haqnazarova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Ya.O'. Ismadiyarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskinlashib, globallashuv jarayonlari tobora murakkablashayotgan, ijtimoiy hayotda esa ma'naviy tanazzul, ommaviy madaniyatning ta'siri, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va separatizm xavfi ortib borayotgan bir davrda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, davlatlararo do'stona hamkorlikni mustahkamlash, qo'shma dasturlarni ilgari surish hamda ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish yo'nalishida samarali faoliyat olib bormoqda. Mafkuraviy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Dunyoda yoshlarning ta'lim olishi, jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari talabalari ongida mustahkam g'oyaviy qarashlarni shakllantirishda, ayniqsa, global informatsion xurujlar sharoitida, yangicha, integrativ yondashuvlar zarurati asoslanib, rivojlangan davlatlarning madaniyati, ma'naviyati hamda an'analarini o'rganishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, yoshlarning mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirish, savodxonligini oshirishning samarali usullarini ishlab chiqish hamda ilmiy asoslarini tadqiq etish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Shu asosda, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi rivojlanish jarayonlarini ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar yutuqlari bilan uyg'unlashtirish hamda talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va ularning manfaatlarini huquqiy himoya qilishga doir qator qonun, qarorlar, farmonlar, maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi"da "jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini targ'ib qilish"<sup>1</sup> muhim ekanligini ta'kidlangan. Bu esa talabalar ongida mustahkam g'oyaviy qarashlarni shakllantirishda, ayniqsa, global informatsion xurujlar sharoitida, yangicha, integrativ yondashuvlar zarurati asoslab mustahkamlashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarining yangi, zamonaviy, ta'sirchan shakllarini ishlab chiqish, modernizatsiyalash va takomillashtirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan aniqlash zarurligi muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9- yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son, “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentabrdagi 736-son “Ta‘lim tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, mamlakatimizda mafkura, mafkuraviy immunitet, uning mazmun-mohiyati, tushunchalarning lug‘aviy izohi, turli davrlardagi nomlanishi, mafkuraviy qarashlar, g‘oya va fikrlar talqini tarixiy manbalar Avesto, Kultegin bitiktoshi, Islom dinining muqaddas kitobi “Qur‘oni Karim”, buyuk mutafakkirlarimiz Imom Buxoriy, Iso at –Termiziy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Abu Nasr Farobiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Abu Homid G‘azzoliy, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi allomalarning ibratli o‘g‘itlari, boy ma‘naviy ilmiy meroslari, ta‘limotlarida aks etgan. Keyingi yillarda ayniqsa, mustaqillik yillarida mafkura, mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasida ilmiy izlanishlar olib borish zarurati vujudga keldi.

Respublikamizning madaniyatshunos olimlaridan A.Erkaev, N.Jo‘raev, A.Ochildiev, A.G‘aniyev, A.Mavrulov, U.Ubaydullayev, M.Qahhorova, Q.Nazarov, A.Mo‘minov, G.Tulenova, F.Ravshanov, S.Otamuratov, S.Mamashokirov, O.Abbosxo‘jaev, N.Umarova, R.Qo‘chqorov, D.Bayaliev, D.Himmatov, Sh.G‘oyibnazarov, A.Tashanov, A.Otamurodov, Sh.To‘raev, N.Salieva, M.Xojiyeva, B.Iminov, A.Umarov, M.Raxmatullaev, A.Sharipov, I.Maminova, X.Mamatrayimova, M.Matmurodova, Z.Islomov, D.Alimova, N.Shabkarova, Sh.Usmonov, M.Jakbarov, Sh.Abbasova, T.Jo‘raevlarning tadqiqot

ishlarida mafkuraviy immunitet masalasi aynan tadqiq etilmagan bo'lsada, "tarixini puxta bilish, milliy urf-odat va qadriyatlar tizimini hurmat qilish, ijtimoiy voqea va hodisalarga ongli munosabat hamda yoshlarning milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlari orqali ularda mustahkam mafkuraviy immunitetni hosil qilishning nazariy-metodologik asoslari tahlil etilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslari mavzusi pedagogik jihatdan alohida tahlil etilmagan bo'lsada, mafkuraviy qarashlar, mafkuraviy immunitet muammosini pedagogik nuqtai-nazardan o'rganish, ayniqsa, ta'lim, tarbiya, madaniyat, ma'naviy madaniyat, axloqiy madaniyat, o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini shakllantirish kabi masalalar bo'yicha Respublikamizning pedagogik olimlaridan O.Musurmonova, M.Ochilov, N.Ortiqov, U.Mahkamov, M.Hoshimova, G.Maxmutova, G.Ibragimova, M.Quronov, Q.Qurbonboeva, F.Norboeva, S.Ochilov, B.Xodjaev, Sh.Olimov, S.Nishonova, Sh.Qurbonov, D.Ro'ziyeva, M.Abdujabborova, Z.Qosimova, Sh.Akramova, G.Maxmutova, D.Kenjaeva, Sh.Rayimov, A.Ismanova, Sh.Shodmonova, I.Mirziyotov, M.Aripova, I.Xushmurodova, M.Yuldashyevalarning ishlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari, "ommaviy madaniyat"ning salbiy illatlarini oldini olishning pedagogik jihatlari, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yuksak salohiyatli yoshlarning ma'naviy qiyofasini takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari, vatanparvarlik, milliy iftixor masalalari o'rganilgan.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida o'quv jarayoni bilan tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'zaro uyg'un tarzda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali yo'lga qo'yish didaktik jihatdan muhim ekani e'tiborga olingan bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borgan pedagog-olimlardan V.P. Beshpal'ko, I.Ya. Lerner, B.T. Lixachev, M.V. Klarin, Ye. S.Polat, N.Saidaxmedov, O'.Tolipov, M.Ochilov, N.Azizxo'jaeva, B.Farberman, K.Zaripov, J.Yo'ldoshev, O.Roziqov, B.Adizov, B.Xodjaev, Sh.Olimov, K.Usmonov, S.Og'aevlarning ilmiy ishlari, darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va monografiyalari o'rganildi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlaridan N.K.Baranov, S.V.Kun'shikov, P.V.Kolozaridi, T.I.Oyzerman, E.N.Chekushkina, M.A.Kovalyov, E.B.Boev, M.Turovskayalar ilmiy-tadqiqot ishlarida mafkura, mafkuraviy immunitet masalalari atroflicha o'rganilgan.

Xorijlik pedagog va psixolog olimlardan V.Druzin, I.Kolotilova, O.Petrich, A.Rean, R. Chaldini va boshqalar mafkuraviy kurashlar, talabalarga xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlar, manipulatsiya jarayonlari, ommaviy madaniyat va uning ko'rinishlari, g'oyaviy kurashlarning turli ko'rinishlarini ilmiy jihatdan aniqlashga harakat qilgan bo'lsalar, A. Destyut de Trasi, Slavoy Jujek, Wolford George, Harold Walsby, Charles Blattberg, David Minar, Willard Mullinslarning ilmiy tadqiqot ishlarida mafkura va mafkuraviy immunitetning nazariy va amaliy jihatlari, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy xususiyatlari yoritilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-002 raqamli "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" (2017-2021 yy.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarning mafkuraviy immunitetini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, milliy qadriyatlar hamda an'analarning uyg'unligi asosida takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda pedagogik shart-sharoitlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek tarbiya usuli, mazmuni va shakllarining tarixiy, ma'naviy hamda zamonaviy komponentlarini kompleks tahlil qilish;

talabalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish modelining tashkiliy-texnologik mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan aksiologik, kognitiv, faoliyatga yo'naltirilgan va integrativ yondashuvlarni tarbiyaviy jarayonga samarali tadbiq etish;

talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga qaratilgan didaktik tuzilmani ijtimoiy institutlar hamkorligini ta'minlagan holda, g'oyaviy-tarixiy saboqlarni zamonaviy ta'lim maqsadlari, shakllari va metodlari orqali takomillashtirish;

talabalarning mafkuraviy fazilatlarini baholash mezonlarini aniqlash va ijtimoiy faollik, an'analar hamda innovatsion g'oyalarning uyg'unligini integratsiyalashgan tamoyillar asosida tizimlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarning mafkuraviy immunitetini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, milliy qadriyatlar hamda an'analarning uyg'unligi asosida takomillashtirish belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Buxoro davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Termiz davlat pedagogika instituti tanlab olinib, 465 nafar talabalar ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan adabiyotlar tahlili, kuzatuv, umumlashtirish, so'rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari milliy qadriyatlar va an'analarning uyg'unligiga mosligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari tarixiy g'oyalar,



qadriyatlarga mos tarbiyaviy bosqichlar, ijtimoiy, madaniy omillar, tendensiyalarni faktik dalillash hamda mazmunli-jarayonli, tashkiliy-pedagogik komponentlarning dialektik aloqadorligi asosida aniqlashtirilgan;

talabalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish modeli talabalarning ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga aksiologik, kognitiv, faoliyatli va integrativ yondashuvlarni tarixiy voqealarning davriy moslashtirish asosida axborotga nisbatan ongli munosabat, tanqidiy fikrlash, shaxsiy pozisiya, emotsional barqarorlik, mafkuraviy moslashuvchanlik kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali takomillashtirilgan;

talabalarning mafkuraviy immunitetini rivojlantirishning didaktik tuzilmasi ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi milliy urf-odat va an'analar, ta'limning tarixiy-konseptual interpretatsiyasi, umuminsoniy munosabatlar to'liqligini tarixiy kontekstda tahlil qilish hamda pedagogik yondashuvning mazmunini ta'limiy maqsadlarga identiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning mafkuraviy fazilatlarini baholash mezonlari ularning shaxsiy va ijtimoiy faolligini aniqlovchi komponentlar (metodik ta'minot, pedagogik va didaktik shart-sharoitlari) asosida ijtimoiy faollik, an'analar va novatsion g'oyalar uyg'unligi, tarixiy refleksiya tamoyillari va ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlash orqali tizimlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalar mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari, modeli hamda amaliyotga joriy etishning didaktik asoslarini o'z ichiga olgan "Pedagogik deontologiya" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

"Pedagogik deontologiya va kompetentlik" nomli darslikda "mafкура", "g'oya", "mafkuraviy immunitet", "ma'naviyat", "ma'rifat", "texnologiya", "axloq", "tarbiya", "milliy mafkura", "mentalitet", "axloqiy tarbiya", "ma'naviy tarbiya", "huquqiy tarbiya", "diniy tarbiya", "vijdon" va "e'tiqod" kabi tushunchalarning mazmuni keng yoritilib, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalar mafkuraviy immunitetini shakllantirishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan;

o'qituvchi professiogrammasini takomillashtirish yuzasidan ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalar mafkuraviy immunitetning rivojlantirish darajasini aniqlash bosqichlari, uning mohiyati, metod va vositalarini o'z ichiga olgan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli o'quv qo'llanma nashr etildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoga pedagogik va psixologik, metodik yondashish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish pedagogik shart-sharoitlari va milliy qadriyatlar hamda an'analarning uyg'unligiga mosligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlarini tatbiq etishda respublikamiz va chet ellik olimlar tajribalari tayangan holda ijtimoiy faollik, an'anaviy qadriyatlar va novatsion g'oyalar

uyg'unligi asosida tadqiqot vazifalariga mos metodlar tanlanganligi, tahlil va tavsifining miqdor, sifat jihatdan ta'minlanganligi, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida o'zining nazariy va amaliy tasdig'ini topganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ta'lim muassasalarini mafkuraviy immuniteti boy, g'oyaviy pozitsiyasi va shaxsiy qarashlari tarixiy tafakkur asosida shakllangan mutaxassislar bilan ta'minlash siyosatining nazariy, huquqiy tomonlari, pedagogik-psixologik xususiyati, ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar asoslab berilganligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalar mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslarini takomillashtirish borasida o'quv va ma'naviy-ma'rifiy loyihalar kerakligi, bo'lajak o'qituvchini emotsional holati, shaxsiy e'tiqodi nimalardan iborat bo'lishi aniqlanganligi, mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillarining qiyosiy tahlil qilinganligi, g'oyaviy pozitsiya mafkuraviy immunitetning segmenti sifatida ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va dasturlarni ishlab chiqish, o'quv mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni shakllantirish hamda innovatsion yondashuvlar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalardan o'quv reja va dasturlarni yangilash, malaka talablarini takomillashtirish, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish jarayonida, shuningdek, talabalar mafkuraviy immunitetini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-nazariy asoslar bo'yicha multimediali elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishda va ta'lim-tarbiya amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari milliy qadriyatlar va an'analarning uyg'unligiga mosligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari tarixiy g'oyalar, qadriyatlarga mos tarbiyaviy bosqichlar, ijtimoiy, madaniy omillar, tendensiyalarni faktik dalillash hamda mazmunli-jarayonli, tashkiliy-pedagogik komponentlarning dialektik aloqadorligi asosida aniqlashtirishga oid takliflardan Buxoro davlat universitetida 2018-2022 yillarda amalga oshirilgan OT-F1-002 raqamli "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusidagi loyihani "Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari" qismini bajarishda foydalanilgan. (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 1-martdagi 01-04/1017-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari

ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmunan boyitilgan;

talabalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish modeli talabalarning ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga aksiologik, kognitiv, faoliyatli va integrativ yondashuvlarni tarixiy voqealarning davriy moslashtirish asosida axborotga nisbatan ongli munosabat, tanqidiy fikrlash, shaxsiy pozisiya, emotsional barqarorlik, mafkuraviy moslashuvchanlik kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar "Pedagogik deontologiya va kompetentlik" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug'i, 233-0332 raqamli guvohnoma). Natijada, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalar mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga oid dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish imkoniyati yaratilgan;

talabalarning mafkuraviy immunitetini rivojlantirishning didaktik tuzilmasi ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi milliy urf-odat va an'analar, ta'limning tarixiy-konseptual interpretatsiyasi, umuminsoniy munosabatlar to'liqligini tarixiy kontekstda tahlil qilish hamda pedagogik yondashuvning mazmunini ta'limiy maqsadlarga identiv moslashtirish asosida takomillashtirishga oid ma'lumotlar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Buxoro davlat universitetining 2023-yil 21-oktyabrdagi 556-son buyrug'i, 556-29 raqamli guvohnoma). Natijada, oliy ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalar mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga erishilgan;

talabalarning mafkuraviy fazilatlarini baholash mezonlari ularning shaxsiy va ijtimoiy faolligini aniqlovchi komponentlar (metodik ta'minot, pedagogik va didaktik shart-sharoitlari) asosida ijtimoiy faollik, an'analar va novatsion g'oyalar uyg'unligi, tarixiy refleksiya tamoyillari va ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlash orqali tizimlashtirishga oid taklif va tavsiyalar "Pedagogik deontologiya va kompetentlik" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug'i, 233-0332 raqamli guvohnoma). Natijada, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalar mafkuraviy immunitetni rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining nashr guvohnomasi asosida 1 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma nashr etilgan bo'lib, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqolalar mavjud bo'lib, shundan 2 ta scopus va 3 ta xorijiy jurnallarda, 9 ta respublika jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 134 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, talabalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida tavsiflanib, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari berilgan. Shuningdek, ushbu bobda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonini tarixiy voqealarning davriy moslashtirish asosida axborotga nisbatan ongli munosabat, tanqidiy fikrlash, shaxsiy pozitsiya, emotsional barqarorlik, mafkuraviy moslashuvchanlik kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish masalalari yoritilib, talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning amaldagi holati va takomillashtirish yo'llari ilmiy-pedagogik jihatdan izohlangan.

Mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning asosiy vazifasi milliy mafkurasining mazmun-mohiyatini, uning maqsadlarini, milliy qadriyatlar va an'analarning uyg'unligiga mosligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari tarixiy g'oyalar, qadriyatlarga mos tarbiyaviy bosqichlar, ijtimoiy, madaniy omillar, tendensiyalarni faktik dalillash hamda mazmunli-jarayonli, tashkiliy-pedagogik komponentlarning dialektik aloqadorligini keng jamoatchilikka tushuntirishdan iborat.

Mafkuraviy tarbiya jarayonida uzluksiz tarbiyaviy faoliyatning aniq maqsad va vazifalarini belgilash, jamiyatda mafkuraviy tarbiyani uzluksiz ta'lim tizimiga ommaviy axborot vositalari faoliyatini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Bugun biz hamma narsa “globallashgan”, zamonaviy til bilan aytganda, masofalar qisqargan va munosabatlar madaniyati bir-biriga yaqinlashgan davrda yashayapmiz. Global jarayonlar mohiyatan xalqlarni yaqinlashtiradi, umuminsoniy manfaatlar nuqtai nazaridan insonning turmush tarziga ta'sir etuvchi omilga aylanadi.

“Mafkura” so'zi arab tilida “fikrlar majmui” ma'nosini ifodalab, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlar, orzulari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimini anglatadi<sup>1</sup>.

Immunitet (lotincha, immunitas, immunitatus – qutulish; xalos, xoli bo'lish). Organizmning o'zidan irsiy jihatdan yot xususiyatlari farq qiladigan, uning butunligiga va biologik o'ziga xosligiga zarar yetkazadigan mikroorganizmlar

---

<sup>1</sup> Sultonov X. Ma'naviyat: asosiy tushunchalari izohli lug'ati. –T. G'. G'ulom nomidagi NMIU. 2009 y. - 292 b.

(kasallik qo‘zg‘atuvchi) zaharli moddalar va bulardan himoyalaniş reaksiyasi<sup>1</sup>. Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi<sup>2</sup>.

Mafkuraviy immunitetni rivojlantiruvchi muhim yo‘llardan biri bu ma’naviy-ma’rifiy ishlar sanalib, jamiyat hayotida har qanday qarashlar, fikrlar, go‘yalarni shakllanishiga, ularning mafkuraviy sifatlarini yangi mazmuni milliy urf-odat va an’analar, ta’limning tarixiy-konseptual interpretatsiyasi asosida, sayqallanib, borishini talab etar ekan, ma’naviy-ma’rifiy hayotda mafkuraviy immunitetni jamiyatning shukuhiga mos tarzda oziqlantiradi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimida dolzarb mavzu ekanligini ijtimoiy hayotda bo‘layotgan voqea-hodisalardan ham bilish mumkin. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish bilan birgalikda talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish, yagona ta’lim-tarbiya tizimini, yondashuvlarni tarixiy voqealarning davriy moslashtirish asosida axborotga nisbatan ongli munosabat, tanqidiy fikrlash, shaxsiy pozitsiya, emotsional barqarorlik, mafkuraviy moslashuvchanlik kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali aniqlashtirish, yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan turli xildagi ma’naviy-axloqiy buzuv g‘oyalar va qarashlardan himoyalay oladigan immunitet tizimini rivojlantirish borasida muammolar mavjudligi, mazkur sohada davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarni o‘z-o‘zini boshqarish organlari, ma’naviy-ma’rifiy tashkilotlar faoliyatida bo‘shliqlarning mavjudligi, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirishda talabalarning mafkuraviy immuniteti, ezgulik va insonparvarlik tamoyillari asosida muhitni sog‘lomlashtirish, uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlash va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berish, tarixiy voqealarning davriy moslashtirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni rivojlantirish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmunini ifodalovchi ko‘rsatuvlarni tashkil qilish kabi ustuvor vazifalarini bajarish yuzasidan amaliy tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning mazmuni, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning zamonaviy shakl, metod, vositalari va texnologiyalari, shuningdek mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar bayon etilgan.

---

<sup>1</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikkinchi jild (Ye–M. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent–2020. – 202 b.

<sup>2</sup> Sultonov X.Ma’naviyat: asosiy tushunchalari izoxli lug‘ati. –T. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU. 2009 y. - 292 b.

Mafkuraviy immunitet mafkuraviy bilim, his-tuyg‘u, iroda, fuqarolik burchi, shaxsiy mas‘uliyat hissi, yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi, faol fuqarolik pozitsiya va qat‘iy e‘tiqodini, kasbiy mahoratini rivojlantiruvchi qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda talabalarda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ona-yurt taqdiri uchun mas‘uliyat tuyg‘usini mustahkamlash, ularni o‘z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilashni taqozo qilmoqda.

Ma‘naviy barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga bo‘lgan zaruriyatni belgilovchi pedagogik turkum fanlarni integratsiyalash natijasida mafkuraviy immunitetda quyidagi kamchiliklar bartaraf etiladi:

a) boshqa yot mafkuralarni tan olmaslik, yakka hokimlik g‘oyasining mutlaq hukmronligi va targ‘ibotini to‘xtatish;

b) sinfiy mafkuralar, vijdon erkinligini cheklab qo‘yish, milliylikdan, qadriyatlardan butunlay xoli bo‘lish;


c) milliy tarix, qadriyatlarga sodiqlik, ajdodlar merosini o‘rganish, xalqning dinga, diniy merosga, diniy qadriyatlarga mutlaqo noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish.

Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan, demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega.

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar targ‘iboti zahirida diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, egosentrizm, axloqsizlik kabi buzg‘unchilik g‘oyalari qarshi qaratilgan, vatanimiz ravnaqini mustahkamlashga, milliy o‘zlikni anglashga, yurtimizning farovonligi, ta‘limning tarixiy-konseptual interpretatsiyasi, umuminsoniy munosabatlar to‘liqligini tarixiy kontekstda tahlil qilish hamda pedagogik yondashuvning mazmunini ta‘limiy maqsadlarga identiv moslashtirish asosida ijtimoiy hayotga ongli munosabatini rivojlantirish, atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg‘usini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda.

Yuqorida ta‘kidlangan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish talabalarga ma‘rifat darslari, mehnat faxriylari va jamoat arboblari, shoirlar, davlat arboblari, san‘atkorlar, xorijiy hamkasblar bilan uchrashuvlar, chellenjlar tashkil qilish, istirohat bog‘lariga, tarixiy obidalarga sayohat, konsert va kino zallar, muzeylarga, teatrlarga, madaniyat uylariga tashriflar, forumlar, konferensiyalar, fan-texnika va madaniyat yutuqlarining taqdimotlariga ishtirok qilish, ijtimoiy tarmoqlar va internet saytlaridagi chiqishlar hamda turli xil madaniy tashriflarni o‘z ichiga olgan maxsus dastur va rejalar, nizomlar asosida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda yondashuv(aksiologik, faoliyatli, kognitiv,integrativ)laridan faol foydalanish nazariy asoslandi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda ilgor pedagogik texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan samarali foydalanish, axborotlar xavfi keskin ko‘payishi davrida ularni mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda pozitsiyalar, yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi hamda mafkuraviy immunitetni hosil qilishda bunday yondashuvlarning afzalligi, mazmun-mohiyati va didaktik xususiyatlarini takrorlash uchun ularning mazmuni tez va aniq amalga oshirishga qaratilgan modeli takomillashtirildi. (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarining mafkuraviy immunitetini rivojlantirishning modeli**

Dissertatsiyaning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning samaradorlik darajalari” nomli uchinchi bobida talabalarning mafkuraviy fazilatlarini baholash mezonlari ularning ijtimoiy-mafkuraviy faollikka bo‘lgan ichki rag‘bati, axborotga nisbatan ongli munosabat, tanqidiy fikrlash, shaxsiy pozitsiya, emotsional barqarorlik, mafkuraviy moslashuvchanlik singari fazilatlarini ko‘rsatkichlari (motivatsion, kognitiv, qadriyatli, refleksiv) va darajalari (yuqori, o‘rta, quyi, qoniqarsiz) ijtimoiy faollik, an’analar va novatsion g‘oyalar uyg‘unligi, tarixiy refleksiya tamoyillari va ularning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash orqali tizimlashtirish va samaradorlikni aniqlashga bag‘ishlangan.

Tadqiqot davomida, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishni uch bosqichda amalga oshirish nazariy asoslandi:

a) talabalarda mafkuraviy immunitetga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bosqichi;

b) talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning funktsionallik bosqichi;

v) umumlashtiruvchi bosqich. Pedagogik tajriba-sinov ishlari yuqorida ko‘rsatilgan bosqichlarni takomillashtirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi.

Tajriba-sinov ishlarining mohiyati oliy ta’lim muassasalari talabalarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonini madaniy omillar, tendensiyalarni faktik dalillash hamda mazmunli-jarayonli, tashkiliy-pedagogik komponentlarning dialektik aloqadorligini amalga oshirishdan iborat qilib belgilandi. Uni tashkil etishda yechiladigan pedagogik vazifalar ko‘lami aniqlandi.

Buxoro, Farg‘ona davlat universitetlari va Termiz davlat pedagogika instituti tajriba-sinov maydonchasi etib belgilandi. Tajriba-sinov jarayoniga jalb qilingan guruhlarining tashkiliy-texnologik mexanizmlarini rivojlantirishga oid bilimlarni o‘zlashtirish darajalarini aniqlash uchun baholash mezonlari ishlab chiqildi. Barcha guruhlar o‘zaro teng vaziyatda va bir xil mazmunda tajriba-sinovdan o‘tkazildi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy bilim darajalari yuzasidan olingan natijalarni baholashda Styudent-Fisher kriteriyasi qo‘llanildi. Guruhlarda o‘tkazilgan tajriba-sinov jarayonlariga 465 nafar talaba jalb etilib, shundan 235 nafari tajriba guruhida va 230 nafari nazorat guruhida ishtirok etishdi.

Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan talabalarning turkum savollar bo‘yicha bilimlari ko‘lami tajriba avvalida (1-jadval) quyidagicha bo‘ldi.

### 1-jadval

#### Tajriba avvalida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo‘yicha talabalar bilimini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Talabalar soni	Bilimlarni o‘zlashtirish darajasi		
		Yuqori	O‘rta	Quyi
Tajriba	235	66	79	90
Nazorat	230	62	76	92

Tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradiki, talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonini davr talablari asosida tashkil qilish uchun muayyan innovatsion yondashuv zarurligi aniqlandi.



Mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy bilim darajalarini belgilovchi so'rovnomma ko'rsatkichlari asosida olingan natijalarni umumlashtirib, foizlarni respondentlar sonida aniqlagan holda o'rtachasi quyidagi jadvalda aks ettirildi (2-jadval).

**2-jadval**

